

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi  
BD-5110900 -3.04  
2016 yil «25» 08



**PEDAGOGIK MAHORAT**

**FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 – pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5110900 – pedagogika va psixologiya

**Toshkent – 2016**

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-yil "26" 08 dagi "355"-sonli buyrug'ining 2-ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2016-yil "2" 08 dagi "3" -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi va turdosh oliy ta'lim muassalari bilan kelishildi.

#### **Tuzuvchilar:**

Xodjayev B.X. – Nizomiy nomidagi TDPU "Umumiy pedagogika" kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Axmedova M.T. – Nizomiy nomidagi TDPU «Pedagogika» kafedrasini pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

#### **Taqrizchilar:**

X.F. Rashidov – Qori-Niyoziy nomidagi O'z.PFITI direktori, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonov SH. – 1-Toshkent pedagogika kolleji direktori, pedagogika fanlari doktori, professor

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2016-yil «14» 04 dagi 10-sonli bayonnomasi).

## Kirish

Ushbu dastur pedagogik mahorat, uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni; pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati; o'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat; o'qituvchining kommunikativ qobiliyati; o'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi; muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarining ustivorligi; o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot; pedagogik nazokat va odob-axloq; pedagogik nizolar va ularni bartaraf etish texnologiyasi; pedagogik texnika haqida tushuncha pedagogik texnikani shakllantirish uslublari kabi masalalarni qamrab olgan.

## Fanning maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – bakalavrlarni pedagogik mahorat, pedagogik texnika va madaniyati nazariyasi hamda amaliyoti bo'yicha bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlash.

Fanning vazifasi – talabalarda nutq madaniyati, pedagogik texnika, pedagogik madaniyatga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

## Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“Pedagogik mahorat” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni;

- pedagogik mahorat fanning vazifalari va asosiy tarkibiy qismlari;

- o'qituvchi pedagogik qobiliyatini rivojlantirish funktsiyalari;

- pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va funktsiyalari;

- pedagogik nazokatning mohiyati va xususiyatlari;

- ta'lim jarayonida o'qituvchiga qo'yiladigan talablar va ijodiy kayfiyatni boshqarish yo'llari;

- tarbiyachilik mahoratining tarkibiy qismlari haqida **bilimga**;

- o'qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish yo'llari;

- pedagogik texnikani shakllantirish uslublari;

- o'qituvchi pedagogik qobiliyatini rivojlantirish funktsiyalarini qo'llay olishni;

- pedagogik texnikani shakllantirish uslublarni amalga oshirish yo'llarini;

- ta'lim jarayonida o'qituvchiga qo'yiladigan talablar va ijodiy kayfiyatni boshqarish yo'llarini qo'llay olishni;

- ta'lim-tarbiya jarayonida kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish yo'llarini qo'llay olishni;

- o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish yo'llarini qo'llash ko'nikmasiga;

- ta'lim jarayonida o'qituvchiga qo'yiladigan talablar va ijodiy kayfiyatni boshqarish yo'llarini qo'llay olgan holda bajarish;

- tarbiyachilik mahoratining tarkibiy qismlaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogik muloqot, pedagogik qobiliyatlardan foydalanish **malakasiga ega bo'lishi lozim.**

### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Pedagogik mahorat fani umumkasbiy fan hisoblanib, 5-semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (falsafa (etika, estetika, mantiq), ma'naviyat asoslari, madaniyatshunoslik), matematik va tabiiy (yosh fiziologiyasi va gigiyena), umumkasbiy (pedagogika nazariyasi, pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi, pedagogik texnologiya) fanlari bilan o'zaro aloqada olib boriladi.

### **Fanning ta'limdagi o'rni**

Pedagogik mahorat – san'at bo'lib, pedagogik jarayonni tashkil etish madaniyati va mahoratini egallashni talab etadi. Pedagogik odob, pedagogik nazokat, pedagogik takt, pedagogik texnika pedagogik mahoratning tarkibiy qismlaridir. Ana shuning uchun ham bo'lajak pedagoglarda pedagogik madaniyat va mahoratga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirishda mazkur fan alohida ahamiyatga ega.

### **Fanni o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarining pedagogik mahorat fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan, ya'ni "Klaster" metodi, "Zigzag" va boshqa zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, yangi informatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik va o'quv qo'llanmalar, seminar ishlanmalari, tarqatma materiallar va elektron materiallardan foydalaniladi. Seminarlarda mos ravishdagi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Seminar mashg'ulotlarida "Aqliy hujum", "Tarozi", "Bumerang" pedagogik texnologiyalaridan, kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

## **Asosiy qism**

### **Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni**

#### **Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatida tutgan orni**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida o'qituvchi faoliyati mazmuniga qo'yiladigan talablar. O'qituvchining umumiy madaniy saviyasi va qobiliyati. O'qituvchilik faoliyatining tizimi, kasbiy mahorati haqida tushuncha. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati. O'qituvchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Pedagogik bilimlar. Pedagogik zakovat. Pedagogik qobiliyat. Pedagogik texnika.

#### **O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat**

Qobiliyatning psixologik-pedagogik tavsifi. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari. Empatiya va pertseptiv qobiliyatlar. Didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ, bilish va anglash qobiliyatlari. O'qituvchi irodasi, sabr-toqati, maqsadga intilishi, o'z hatti-harakatlarining to'g'riligiga nisbatan qat'iy ishonchi, uning o'z-o'zini idora qilish hamda boshqalarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyati, his-tuyg'ulari va kayfiyatini boshqara olishi, o'z zimmasiga javobgarlikni ola bilishi, ijodiy holatni tashkil eta olishi kabi sifatleri.

#### **O'qituvchining kommunikativ qobiliyati**

Muloqot orqali ta'sir etish. Muloqotga kirishish. Aloqa o'rnatish (kommunikatsiya) tushunchasi, uning mohiyati, pedagogik ta'sir etish usullari. O'qituvchi tomonidan muloqotga kirishish jarayonida qo'llaniladigan muomala uslublari. O'qituvchining kommunikativ ko'nikmasi: "Yuzni o'qish san'ati", o'zgar holatini tushuna olish, o'zini namoyon qila bilish, nutq vositasi hamda so'zsiz holatda inson ruhiyatini tushuna olish. O'qituvchi tomonidan o'quvchi bilan muloqotda bo'lish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari: ishontirish va ma'qullash. Ishontirishning og'zaki shakllari: ogohlantiruvchi so'zlar, tezlik bilan ta'sir etish, ijro etishga undovchi buyruqlar, ta'qiqlangan iboralar, hazil orqali anglatish, ma'qullash yoki ayblash.

#### **O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi**

"Muloqot" atamasining falsafiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik mohiyati, muloqot birligi. Pedagogik muloqot, uning o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik muloqotni tashkil etish madaniyati. Pedagogik muloqotni tashkil etish bosqichlari va usullari. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqot jarayonini boshqarish uslublari. Muloqot jarayonida tashabbusni boshqarish.

#### **O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot**

Dars hamda darsdan tashqari jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot, unga qo'yiladigan talablar.

O'quvchilar jamoasida ularning e'tiborlarini jalb etish va ijodiy kayfiyatlarini yaratishda o'qituvchi muloqotining ta'siri va uning ahamiyati, o'quvchi bilan bo'lgan muloqot jarayonida o'qituvchi tomonidan ishonirish va ta'sir etish usullaridan foydalanish. Muloqot jarayonini boshqarish uslublari. O'qituvchi obro'si. Avtoritar uslubdagi muloqot. Liberal uslubning o'qituvchi faoliyatida namoyon bo'lish xususiyatlari. O'qituvchining demokratik uslubdagi muloqoti – o'quvchilar fikriga tayanish, ushbu fikrlarni ma'qullash shakli.

Ilmiy pedagogik adabiyotlarda berilgan muloqot turlari (do'stona muloqot, qo'rquv asosiga qurilgan muloqot, hazil-mutoyibaga asoslangan muloqot va boshqalar) haqida.

### **Pedagogik nazokat va odob-axloq**

Pedagogik odob va pedagogik nazokat haqidagi tushuncha. Pedagogik nazokat tamoyillari va uning vazifasi. Pedagogik nazokat me'yori: ixtisos sohasidagi burch, pedagogik adolat, ixtisosga doir vijdon izzat-nafs va pedagogik oriyat. Pedagogik nazokat-o'qituvchi ahloqining ijodiy ko'rinishi. Pedagogik nazokatning zarurligi. Pedagogik nazokatning mohiyati va xususiyati. O'qituvchining dars jarayonidagi nazokati. Nazokat va taktika.

### **Pedagogik texnika haqida tushuncha pedagogik texnikani shakllantirish uslublari**

Pedagogik texnika-o'qituvchining fe'l-atvori, yurish-turishini tashkil etuvchi usullar majmuasi. Pedagogik texnika vositasi: verbal va noverbal kommunikatsiya. Pedagogik texnikaning tarkibiy qimlari. O'qituvchining o'z ruhiy holatini boshqara olish texnikasi. Ish va tashqi texnika. Psixotexnikaning ilmiy asoslari. Diqqatning taqsimlanishi, kuzatuvchanlik, muayyan obyektini tez anglay olish, aniq va yorqin tasavvur etish, badiiy sezgirlik. O'qituvchining tashqi qiyofasi va unga qo'yiladigan talablar.

### **Nutq texnikasi va notiqlik madaniyati**

Nutqning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. Mutafakkirlar va pedagoglarning so'z va nutqning ijtimoiy jamiyatda tutgan o'rni va roli haqidagi qarashlari. Nutqning o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro muloqot jarayonidagi asosiy bog'lovchi vosita ekanligi. Nutq organlari, nutq apparati. Til va nutq. Og'zaki nutqning psixologik tuzilishi; maqsadi (nima uchun gapiryapman?), mazmuni (nima demoqchiman?). Nutq madaniyati haqida tushuncha, uning unsurlari. Nutq texnikasi: nafas olish, ovozni yo'lga qo'yish, uning tozalanishi, talaffuz, nutq sur'ati. O'qituvchining nutq mahoratini takomillashtirish yo'llari.

### **O'qituvchining ta'lim jarayonidagi mahorati**

O'qituvchining o'quvchilarni bilish (anglash) faoliyatini boshqarishdagi mahorati. Dars mazmunini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olinishiga yordam beruvchi jihatlar, ularning qiziqish va faolliklarini oshirish ko'nikmasini hosil qilish. O'qituvchi faoliyatida ko'tarinki ruh, yaxshi kayfiyat, ishga bo'lgan hoxshing etakchi o'rin tutishi va ularni hosil qilish yo'llari.

### **O'qituvchining tarbiyachi sifatidagi mahorati**

Tarbiyachi mahoratining mohiyati. Faoliyatni tashkil etishni oldindan tashhislash mahorati. O'quvchilarni o'rganish diagnostikasi. Jamoani o'rganishning asosiy mezonlari. Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda o'qituvchining o'z-o'zini tekshirishga yo'naltirilgan diagnostikasining o'rni va ahamiyati. Tarbiyachi mahoratining tizimi: ijtimoiy, estetik, axloqiy hamda texnologik. Tarbiyachi faoliyatining asosiy ko'nikmalari.

### **O'qituvchining tarbiya texnologiyalari asosida faoliyat olib borishi**

Hozirgi kunda barkamol shaxsni tarbiyalash muammolari. Tarbiya texnologiyalarini modellashtirish. Tarbiyaviy jarayon va tarbiya mazmunini modellashtirish. Tarbiya qonuniyatlari va tarbiya mazmuni tamoyillarini modellashtirish. Tarbiya texnologiyalarini qo'llashda pedagogik vositalardan foydalanish. Tarbiya ko'rganlikni aniqlash (diagnostika).

### **O'qituvchi pedagogik faoliyatida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish**

Pedagogik mahoratni oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati. Ta'lim-tarbiya jarayonida kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish. O'qituvchining kompyuter texnologiyalari asosida o'quvchilar bilimini nazorat qilishi. O'qituvchida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish malakalarini shakllantirish yollari.

### **O'qituvchi pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning o'rni**

Kasbiy refleksiya va pedagogik faoliyat. O'qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirishda pedagogik refleksiyaning ahamiyati. Pedagogik tashxislash asosida o'qituvchining kasbiy rivojlanishini ta'minlash usullari. O'qituvchi faoliyatini pedagogik tashxislash.

### **O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish**

Pedagogik mahoratni shakllantirishning asosiy tamoyillari: yaxlit holda yondashuv; faol muloqot; pedagogik harakatning xilma-xilligi; pedagogik ta'sirining ko'p qirraliligi; nazariy bilim va amaliy malakalarning o'zaro bog'liqligi. O'qituvchi mehnatini nazariy va amaliy jihatdan tashkil etish va uning o'qituvchi mahoratini shakllantirishdagi ahamiyati. Maqsadning qo'yilishi-pedagogik faoliyatni tashkil etishning tayanch unsuri: maqsadning izchilligi.

### **Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlarida talabalarda pedagogik mahoratga doir bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

Seminar mashg'ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Pedagogik mahorat, uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni.

2. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat.
3. O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi.
4. Pedagogik texnika va o'qituvchining mahorati.
5. Nutq texnikasi va madaniyati haqida.
6. O'qituvchi mahoratini takomillashtirish yo'llari va shart-sharoitlari.

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish jarayonida talabalar pedagogikaga oid darslik va o'quv qo'llanmalaridan foydalangan holda, ma'ruza mashg'uloti jarayonida egallagan bilimlarini yanada boyitishadi hamda ko'nikma va malakalarga ega bo'lishadi. Seminar mashg'ulotlari amaliy topshiriqlarni bajarish bilan uzviylikda amalga oshiriladi.

### **Mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha tavsiyalar**

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda mazkur fanning muayyan o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- 1) darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanib, barcha mavzularni o'rganish;
- 2) tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish.

Talabalarning mustaqil ta'lim topshiriqlari har bir ma'ruza mavzusi asosida tashkil etiladi. Fanni o'rganish jarayonida mustaqil ta'limning bir necha turlaridan foydalaniladi:

- 1) adabiyotlar bilan ishlash;
- 2) ijodiy ish;
- 3) ba'zi mavzular bo'yicha referatlar tayyorlash;

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari:

1. «Men tanlagan kasb» mavzusida ijodiy insho yozish.
2. Izohli lug'atlar bilan ishlash va o'qituvchi atamasi haqida ma'lumot to'plash.
3. «Barkamol avlod orzusi» kitobini o'qib chiqish va asosiy fikrlarni konspekt qilish.
4. Sharq mutafakkirlari, chet el va Evropa, O'zbekistonlik pedagog olimlarning o'qituvchi va uning mahorati haqidagi fikrlarini o'rganish va to'plash.
5. Fakulttdagi dars va mashg'ulotlarda o'qituvchilar tomonidan auditoriya diqqatini jalb etish, talabalarga ta'sir etish, ular bilan munosabatga kirishish, o'rnatish bo'yicha qo'llanilayotgan usullarni o'rganish, to'plash, yozib borish.
6. Muloqot jarayonini boshqarish usullarini qiyosiy tahlilini o'tkazish.
7. «Muallim - qalb me'mori» (Malla Ochilov) kitobini o'qish, asosiy fikrlarni o'rganish va konspekt qilish.
8. Fakulttda dars jarayonida uchraydigan nizolarni o'rganish va yechimini tahlil qilish.
9. O'qituvchi kasbini aks ettiruvchi emblema tayyorlash.
10. Fakultet (o'rta maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji) o'qituvchilarining darslarini kuzatish va dars fragmentini yaratish.
11. O'z-o'zini tarbiyalash yoki o'z ustida ishlash shaxsiy dasturini tuzish.



## Fan dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti

### Didaktik vositalar

#### Didaktik vositalar ro'yxati beriladi.

- **jihazlar va uskunalar, moslamalar:** elektron doska - Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).

-**video-audio uskunalar:** video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

-**kompyuter va multimediali vositalar:** kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok)

### Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

#### Asosiy adabiyotlar:

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat (darslik). -T., 2011.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (o'quv qo'llanma) . -T., 2006.
3. Зиёмухаммедов Б. Педагогик махорат асослари. (Укув кўлланма). -Т., 2009.
4. Бойбекова Г.Д., Холикова Г.Т., Магзумова Г. Педагогическое мастерство. Учебное пособия. Т.: 2002

#### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ibragimov X., Yoldoshev U. va boshqalar Pedagogik psixologiya (o'quv qo'llanma) . -T., 2007.
2. Ochilov Malla. Muallim qalb me'mori. – T., 2000.
3. Pirmuhammedova M. Pedagogik mahorat asoslari.-T.: 2001.
4. Karimova V. "Mustaqil fikrlash" metodik qo'llanma. -T.: - 2000 y.
5. Hamdamova M. Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish mexanizmining pedagogik-psixologik asoslari (uslubiy tavsiyalar), 2007.
6. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.- T., 2006.
7. Hodiev B.Y., Bojabaev M.R. "Oliy o'quv yurtidagi tarbiyaviy ishlarga psixologik yondashuvlar". -T.: 2009.
8. Зайзун А. Основы педагогического мастерства – М., 1988.

#### Elektron ta'lim resurslari

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
5. [tdpu-INTRANET.Ped](http://tdpu-INTRANET.Ped)

